



21.01.2022 даги

"SKB TA'MINOT GOSHT" oilaviy korxonа va Kuychirchik tumani MTB ўртасида 206010000,00 сўм умумий суммага  
тузилган 2 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб 251  
Шахсий газна ҳисобварак 100022860272337091100251017

сўмда

| 2022 й. ойлар номи.    | Харажатлар тури**<br>(бюджет таснифининг тегишли коди) |  |  | Жами                  |
|------------------------|--|--|--|-----------------------|
|                        | 4252300  |  |  |                       |
| Январь                 | 206 010 000,00   |  |  | 206 010 000,00        |
| Февраль                |  |  |  |                       |
| Март                   |  |  |  |                       |
| Апрель                 |  |  |  |                       |
| Май                    |  |  |  |                       |
| Июнь                   |  |  |  |                       |
| Июль                   |  |  |  |                       |
| Август                 |  |  |  |                       |
| Сентябрь               |  |  |  |                       |
| Октябрь                |  |  |  |                       |
| Ноябрь                 |  |  |  |                       |
| Декабрь                |  |  |  |                       |
| <b>Жами йил бўйича</b> | <b>206 010 000,00</b>                                  |  |  | <b>206 010 000,00</b> |

Жами 206010000,00 сўм

Икки юз олти миллион ўн миңг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 61803000,00 сўм ёки 30,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
\_\_\_\_\_ % \*\*\*20 \_\_\_\_\_ ойида тўланиши лозим.

(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан газначилик бўлинмасига икки нусхада тақлим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига \_\_\_\_\_ % жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлинилади).

Буюртмачи раҳбари

М.Ў.

(ИМЗО)

Мирзаева Д.М

Ф И Ш

Буюртмачи бош бухгалтери

(ИМЗО)

Каландаров И. Я.

Ф И Ш

Газначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди

(ИМЗО)

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

(ИМЗО)

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

## SHartnoma № 2

Do'stobod sh.

21.01.2022 yil.

Bundan buyon "BUYURTMACHI" deb ataluvchi Quyi CHirchiq tumani MTB nomidan Ustav asosida faoliyat olib boruvchi D.Mirzayeva bir tomondan va bundan buyon "ETKAZIB BERUVCHI" deb ataluvchi "SKB TA'MINOT GO'SHT" OILAVIY KORXONA nomidan Ustav asosida faoliyat olib boruvchi A.Abduraxmanova ushbu kontraktning quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

### 1. KONTRAKT PREDMETI

1.1. Ushbu kontraktga asosan Buyurtmachi tovarni qabul qiladi va to'laydi, Etkazib beruvchi esa quyidagi shartlarga muvofiq etkazib beradi:

| № | Tovarlarning nomi    | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi | Kontraktning umumiy qiymati (bitim summasi) |
|---|----------------------|-----------------|---------|-------|---|
| 1 | Mol gushti 1-toifali | kg              | 3270    | 63000 | 206 010 000                                 |
| 2 |                      |                 |         |       |   |
| 3 |                      |                 |         |       |   |
| 4 |                      |                 |         |       |   |
| 5 |                      |                 |         |       |   |
| 6 |                      |                 |         |       |   |
|   | <b>Jami</b>          |                 |         |       | <b>206 010 000-00</b>                       |

1.2. Kontraktning umumiy Ikki yuz olti million o'n ming so'mni tashqil qiladi\_\_ (QQS bilan yoki QQS siz).

### 2. ETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBBLAR SHARTLARI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur kontraktning g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq, kontrakt umumiy summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 90 kalendar kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Etkazib beruvchi" avans mablag'lari Etkazib beruvchining tegishli hisob-varag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 10 kalendar kuni ichida tovarni etkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Etkazib beruvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni etkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Etkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini talablarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur kontrakt bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Etkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin etkazib berilishi mumkin.

2.7. Etkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda etkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur kontraktga ko'zda tutilgan tovarlarni etkazib berish, mazkur kontraktga muvofiq amalga oshiriladi.

### 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

Etkazib beruvchidan Kontraktning bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Buyurtmachi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Etkazib beruvchidan transport xarajatlarni qoplab berishni talab qilish, agar mazkur kontraktning shartlaridagi boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Etkazib beruvchidan joylashtirilgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur kontraktga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni etkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar etkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;

- kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;

- Etkazib beruvchidan mazkur kontrakt shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida etkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur kontraktga muvofiq o'zining joylashtirgan buyurtmanomasi bo'yicha etkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;

- tovarlarning qiymatini mazkur kontraktga belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Etkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega:

- "Buyurtmachidan" oldindan to'lov va etkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

3.4. Etkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur kontraktga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda etkazib berish;

- agar tovarlarni etkazib berish jarayonida Etkazib beruvchi kontrakt shartlari va me'yorlardan va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'q qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha 10 kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur kontrakt belgilangan tartibda mazkur kontrakt shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

#### **4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI**

4.1. Buyurtmachi:

- Taqdim etilgan hujjatlarning ishonchiligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

4.2. Tovarlarini tanlab olmaslik, shuningdek etkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni etkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi etkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, etkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot etkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Etkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi etkazib beruvchiga etkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Etkazib beruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni etkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha etkazib beruvchi buyurtmanomalarini shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- tuzilgan kontrakt shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar etkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, etkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar etkazib berganlik uchun jarima etkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Tovarlarini etkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq etkazib berilmagan, tovar etkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq etkazib bermaslik, oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.7. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni etkazib berganlik uchun etkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin etkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi etkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

#### **5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar sudga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudga ko'rib chiqiladi.

#### **6. FORS-MAJOR**

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga qelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarilmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2 Engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

6.3 SHartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini sababli bajarilmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4. SHartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## 7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 8. KONTRAKTNING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur kontrakt g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrigacha amal qiladi.


8.2. Kontraktning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.


8.3. Kontraktning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| Etkazib beruvchi   |
|--|
| Tashkilot nomi "SKB TA'MINOT GO'SHT" OILAVIY KORXONA<br>Manzil: Toshkent vil Quyi CHirchiq tumani<br>Telefon: 99899 020 53 11<br>Faks:<br>STIR kodi: 307 139 904<br>OKONX:<br>Toshkent sh. "Davr-Bank" XATB chilonzor f-l<br>MFO 01046<br>X/r 20208000405188074001<br>Raxbar (direktor):  Abduraxmanova<br>M.O.: (imzo) |



| Buyurtmachi   |
|---|
| Tashkilot nomi: Quyi CHirchiq tumani MTB<br>Manzil: Do'stobod sh.<br>Telefon: 0370-56-72-379<br>Faks: 0370-56-72-018<br>STIR kodi: 305157084<br>OKONX: 85100<br>OKED: 85100<br>Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisob varagi:<br>x/r 100022860272337091100251017<br>MFO.00014 RKS GU SB g. Tashkenta<br>Quyi CHirchiq tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi<br>G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919<br>YAgona G'aznachilik hisob varaqlari (YAG'H):<br>23402000300100001010<br>Raxbar (direktor):  D. Mirzayeva<br>M.O.: (imzo) |



Toshkent viloyati Quyi-CHirchiq tumani MTB  
Oziq-ovqat maxsulotlari sotib olish uchun tanlov komissiya yig'inishi

BAYONNOMASI

«17» 01 2022 yil

№ 2

Raislik kiluvchi ; D.Mirzayeva Mudir  
Komissiya a'zolari L.Pak Oziq-ovqat mahsuloti hi-bi bo'-cha xisobchi  
M.Kaxarova Tovar moddiy ki-r xi-b bo'yicha xisobchi  
D.Uskenbayev Davlat xarid va shartnoma b-cha mutaxassisi  
S.Xolboyev D.X.SH.SH.M.T.M.F.t-kil e-sh b-cha mutaxassisi  
T.Tursunov Taminochi

KUN TARTIBI:

Kun tartibiga Maktabgacha talim bo'limi 2022 yil yanvar oyida oziq-ovqat maxsulotlari sotib olish buyicha ta'minotchini aniklash va shartnoma tuzish masalasi kuyildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan MTB mudiri .D.Mirzayeva suzga chikib oziq-ovqat maxsulotlari xarid kilishda byudjet mablaglari buyicha aytib utib, MTT larga sifatli va arzon bulgan oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash maksadida, 2022 yil «17» yanvar oziq-ovqat maxsulotlari xarid kilish summa jami 206 010 000 sumlik bulgan e'lon joylashtirilganligini aytib utdi, arzon va sifatli oziq-ovqat maxsulotlari xarid kilish va byudjet mablaglarini samarali ishlatilishi maksadida oziq-ovqat maxsulotlari etkazib beruvchi ta'minotchilardan tushgan takliflarni aytib utdi. Ushbu takliflar kuyidagicha:

| № | "Maxsulot nomi"      | "SKB TA'MINOT GO'SHT OILAVIY KORXONA" MCHJ | "KO'SHEK" | "TA'MINOT MTS CHINOZ" |
|---|----------------------|--|-----------|-----------------------|
| 1 | Mol gushti I-toifali | 63000                                      | 64000     | 65000                 |
| 2 |                      |  |           |                       |
| 3 |                      |  |           |                       |

YUkoridagi takliflarni komissiya a'zolari kurib chikib,bildirilgan fikr va muloxazalar tinglandi va komissiya a'zolari bir ovozdand karor kiladi:

1."SKB TA'MINOT GO'SHT OILAVIY KORXONA" MCHJ ning oziq-ovqat maxsulotlariga uchun bergan taklifi sifatli va arzon bulganligi va uz avtomobilida etkazib berib berilishini inobatga olib tanlov golibi deb topilsin.  
2. Bosh xisobchi I.Kalandarov "SKB TA'MINOT GO'SHT OILAVIY KORXONA" MCHJ ta'minotchi bilan tegishli xisob kitoblarni inobatga olib, byudjet mablaglari xisobidan belgilangan tartibda shartnoma tuzilsin. oziq-ovqat maxsulotlari xarid kilish va tegishli xisob kitoblarni amalga oshirish xamda javobgar shaxslarga beriladigan ishonch kogozlari va yuk xatlarini nazorat kilish bosh xisobchi I.Kalandarov va oziq-ovqat mahsuloti hisobi bo'yicha xisobchi L.Pak yuklatilsin.

Komissiya a'zolari L.Pak Oziq-ovqat mahsuloti hi-bi bo'-cha xisobchi  
M.Kaxarova Tovar moddiy ki-r xi-b bo'yicha xisobchi  
D.Uskenbaev Davlat xarid va shartnoma b-cha mutaxassisi  
S.Xolboev D.X.SH.SH.M.T.M.F.t-kil e-sh b-cha mutaxassisi  
T.Tursunov Taminochi

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: Quyi Chirchiq tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi bilan "SKB TA"MINOT GO"SHT" oilaviy korxonaga o'rtasida tovarlarni qabul qilish va to'lash hamda shartlarga muvofiq yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022 yil 21 yanvar kuni elektron tizimga kiritilgan.


"SKB TA"MINOT GO"SHT" oilaviy korxonaga bilan Quyi Chirchiq tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasida tuzilayotgan, umumiy bahosi 206 010 000 (ikki yuz olti million o'n ming) so'm miqdoridagi shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Taraflar o'rtasida tuzilayotgan mazkur shartnoma va O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi №670-1 sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 27 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-sonli qarori va boshqa tegis'li qonun hujjatlari talablariga mos ravishda tuzilgan.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda tomonlarga javobgarlik choralari qo'llanilishi, kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda o'zaro hal qilish yoki tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilish tartibi, barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda ikki tomonlama imzolanib tasdiqlangan holda tuzilishi nazarda tutilgan.

Shartnoma loyihasida taraflarning javobgarligi va nizolarni hal yetish tartibi va boshqa kelishilgan barcha shartlar qonun hujjatlari talablariga mos keladi va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsul'ti



T.Chegaboyev

2022yil «21» yanvar